



QO‘QON XONLIGIDA AYOLLAR O‘RTASIDAGI  
SAVODXONLIK JARAYONLARI VA ULARNING MUALLIMLIK  
FAOLIYATI

*Mirzaaxmedova Gulshanoy Mansurjon qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

*G‘oziyeva Namuna Ma‘ruffjon qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

[Goziyevanamuna5@gmail.com](mailto:Goziyevanamuna5@gmail.com)

+998 99 320-46-94

**Annotatsiya:** *Maqola Qo‘qon xonligida ayol muallimalar va shoiralarning savodxonlik, ma‘naviy tarbiya va badiiy ijoddagi rolini o‘rganadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Dilshodi Barno, Anbar Otin, Jahonotin Uvaysiy va Nodirabegim faoliyati asosida qizlar maktabdorligi, she‘riyat va tasavvufiy meros shakllanishi yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Dilshodi Barno, Anbar otin, Uvaysiy, otin, otincha, Jahon otin, maktabdor, shorialar.*

**Annotation:** *The article examines the role of female teachers and poets in the Kokand Khanate in literacy, moral education, and artistic creativity. The study highlights the activities of Dilshodi Barno, Anbar Otin, Jahonotin Uvaysiy, and Nodirabegim in the late 19th and early 20th centuries, focusing on girls’ schooling, poetry, and the formation of Sufi artistic heritage.*

**Keywords:** *Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy, female teacher, Otinchalik tradition, Jahon Otin, schoolteacher, poets*

**Аннотация:** *Статья рассматривает роль женщин-учительниц и поэтесс в Кокандском ханстве в области грамотности, нравственного воспитания и художественного творчества. В исследовании освещается*



*деятельность Дилшоди Барно, Анбар Отин, Джахонотин Увайсий и Нодирабегим в конце XIX — начале XX века, с акцентом на обучение девочек, поэзию и формирование суфийского художественного наследия.*

**Ключевые слова:** *Дилшоди Барно, Анбар Отин, Увайсий, женщина-учитель, традиция Отинча, Джахон Отин, учитель, поэтессы*

Qo‘qon xonligi davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, balki ijtimoiy-madaniy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham alohida ajralib turadi. Ushbu davrda jamiyatning turli qatlamlarida ta‘lim tizimi shakllanib, diniy va dunyoviy bilimlar uzviy ravishda rivojlandi. Ayniqsa, ayollar o‘rtasida savodxonlik darajasi va ularning ta‘lim jarayonidagi ishtiroki masalasi o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, bu holat o‘sha davr ijtimoiy muhitini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

An‘anaviy jamiyat sharoitida ayollarning ijtimoiy faolligi ko‘proq oilaviy doira bilan cheklangan bo‘lsa-da, Qo‘qon xonligida ayrim hollarda ayollar ma‘rifat tarqatishda muhim o‘rin egallaganlar. Xususan, otinoyi va bibi-xalifa kabi ayol muallimalar orqali qiz bolalarga savod o‘rgatish, diniy bilimlar berish va axloqiy tarbiya masalalari yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa ayollar o‘rtasida savodxonlikning ma‘lum darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligida ayollar o‘rtasidagi savodxonlik jarayonlari, ularning ta‘lim olish imkoniyatlari hamda muallimlik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol muallimalarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ma‘rifiy faoliyati va yosh avlod tarbiyasidagi hissassi tarixiy manbalar asosida yoritib beriladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning ilmiy, ma‘naviy jihatdan yuksak axloqdor bo‘lishlari uchun ziyolilar orasida jiddiy harakat avj oldi. Zero, oiladagi bola tarbiyasi, ya‘ni yosh avlod tarbiyasi, asosan onalar qo‘lida ekanligi hammaga ayon bo‘lgan. Shu bois ilg‘or, ziyoli ayollar nafaqat qizlar maktablarini ochib, maktabdorlik bilan shug‘ullanish, balki axloqiy-tarbiyaviy

risolalar yozish orqali bo'lajak ziyoli onalarni voyaga yetkazishga hissa qo'shganlar.

Shu jihatdan Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899-yillarda nashr etilgan «Muosharat odobi» («Turmush odobi») asari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Asarda ta'kidlanishicha: *“Agar hotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shakshubhasiz biladi”*. Bu esa ayollarning ma'naviy, ijtimoiy va oiladagi roli haqida bilimli bo'lishi, ularning jamiyatdagi faolligini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi [1:32].

Qo'qon xonligida ayollar o'rtasida savodxonlikni oshirishda maktab tizimi muhim o'rin tutgan. Umuman olganda, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va Xiva xonligi hududlarida xalq ta'limi tizimi o'zaro o'xshash shakllangan bo'lib, unda madrasalar, maktablar va qoriqxonalar faoliyat yuritgan. Madrasalar oliy diniy ta'lim maskanlari hisoblangan bo'lsa, maktablar boshlang'ich savod berish vazifasini bajargan. Ushbu maktablar masjidlar qoshida yoki xususiy uylar asosida tashkil etilib, o'g'il bolalar va qizlar uchun alohida holda faoliyat yuritgan.

Biroq qiz bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari ko'p jihatdan ijtimoiy omillar bilan cheklangan. Xususan, ularning erta turmushga chiqishi natijasida ko'pchilik qizlar 8–9 yoshga yetmasdan uy-ro'zg'or ishlarini o'rganishga jalb etilgan. Bu holat ularning muntazam ta'lim olishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa-da, ayrim oilalarda qizlarning boshlang'ich savod chiqarishiga e'tibor qaratilgan.

Ayniqsa, qiz bolalar ta'limida ayol muallimalarning o'rni muhim bo'lgan. Bu borada Dilshodi Barno faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. U 1800-yilda O'ratepada tavallud topgan bo'lib, dastlabki savodni otasi — shoir Rahmonqul So'fi Istaravshanidan olgan. 1812-yilda Umarxon tomonidan O'ratepaning bosib olinishi natijasida Dilshod Otin boshqa asirlar qatori Qo'qonga olib kelingan. Keyinchalik u saroy muhitidan chiqib, Toshmaxdum xonadonida yashab qoladi va shu yerda o'zining ilmiy-ma'rifiy faoliyatini davom ettiradi.

Dilshod otin Qo‘qon shahrida maktab tashkil etib, uzoq yillar davomida qizlarga ta‘lim bergan. Dilshodi Barnoning o‘z xotiralarida qayd etishicha, u ellik bir yil davomida maktabdorlik bilan shug‘ullangan hamda har yili o‘rtacha 20–30 nafar o‘quvchiga saboq bergan. Natijada u jami 800 dan ortiq qizlarning savodini chiqargan. Eng e‘tiborlisi, uning shogirdlarining ma‘lum qismi nafaqat savodli bo‘lib yetishgan, balki she‘riyatga qobiliyatli bo‘lib, o‘z davrining bilimli va ziyoli ayollariga aylangan [2:301].

Uning o‘quvchilarining orasidan ko‘plab iste‘dodli shoirlar yetishib chiqqan bo‘lib, ular orasida Anbar Otin, To‘tiqiz, Xayriniso va Bahriniso kabi ijodkorlar bor edi. Bu esa Dilshodi Barno maktabining nafaqat savod berish, balki adabiy muhit shakllantirishda ham muhim markaz bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Dilshodi Barnoning ijodiy merosi ham uning ma‘rifatparvarlik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning «Tarixi muhojiron» asarida XIX asr Qo‘qon xonligi hududidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar keng yoritilgan. Asarda muallif nafaqat voqealarni bayon etadi, balki jamiyatdagi muammolarga munosabat bildirib, ayollarni ma‘rifatli, erkin va jamiyatning teng huquqli a‘zolari bo‘lishga da‘vat etadi.

Mazkur asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda O‘ratepa va Qo‘qon hududida yashab ijod qilgan 30 dan ortiq shoir va shoirlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bu esa asarning nafaqat tarixiy, balki adabiy-manbashunoslik ahamiyatini ham oshiradi. Dilshodi Barno o‘z asari orqali o‘z davrining ma‘naviy-madaniy muhitini aks ettirib, ayniqsa ayollar ijodining rivojiga alohida e‘tibor qaratgan.

Shuningdek, uning asarlarining qo‘lyozma nusxalari bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanib kelinmoqda (inv. № 1207). Dilshodi Barno asarlari o‘zbek va tojik tillarida nashr etilgan bo‘lib, ular hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

XIX asrda Qo'qon ilmiy muhitining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Anbar Otin Dilshod Otin maktabida tahsil olgan va shogirdlikdan so'ng, she'riyat bilan shug'ullanish bilan birga, mahallasidagi yosh qizlarga ta'lim va tarbiya bergani tufayli **Otin** unvonini olgan. U o'z ijodini o'zbek va tojik tillarida davom ettirgan, ijodiy faoliyatida esa ko'proq Uvaysiyga ergashgan. Shuningdek, u Alisher Navoiyni birinchi ustoz sifatida e'zozlagan.

Anbar Otin zamondoshlari Muqimiy, Furqat va Zavqiy bilan tanish bo'lgan, ularning ijodiga murojaat qilgan va ba'zan u bilan bahslashgan. Shoiraning o'zbekcha she'rlari (48 ta)dan devon tuzilgan bo'lib, unda 41 g'azal, 4 muxammas, 1 qit'a, 1 masnaviy va 1 mustazod o'rin olgan (1905). 1970-yillarning boshida shoiraning 40 ga yaqin she'rdan iborat yana bir qo'lyozma devoni, «Qarolar falsafasi» risolasi va 160 misralik «yakka bayt»lari topilgan. Tojikcha g'azallaridan devon tuzish niyati bo'lgan, ammo hozirgi kungacha uning mavjudligi noma'lum.

Qo'qon adabiy muhitida ayol shoirlar ijodini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan ustozlardan biri — Jahonotin Uvaysiy. U bir guruh shoiralarga ustozlik qilib, o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga benazir hissa qo'shgan. Jahonotin Uvaysiy ayollar tasavvufi tushunchasini yangi pog'onaga olib chiqdi, ularning badiiy ijodini rivojlantirish va shakllantirishda muhim yo'l ko'rsatgan.

Badiiy jihatdan pishiq, go'zal she'riyati nafaqat shoirlalar, balki shoirlar uchun ham mahorat maktabi sifatida xizmat qilgan. Uning shaxsiyatida jasur, fidoiy va haqgo'y shoirlarga xos axloqiy-ruhiy sifatlar ustunlik qiladi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov yozishicha: *“Uvaysiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy qudrati va ko'lami bilan qadim yunon shoirasi Sapfo, fransuz shoirasi Margarita Navarli, Sharq she'riyatining malikasi Zebunisolar qatoridagi san'atkor. Uning poeziyasi dunyo badiiy tafakkurida sodir bo'lgan o'ziga xos va xarakterli ijodiy hodisalardan edi”* [3:3].

Marg'ilonda Uvaysiy «Jahon otin» nomi bilan hurmat topganligi va mashhur bo'lganligi ma'lum. Xalq orasida xat-savodli va diniy ilmlardan puxta

xabardor bo'lgan ayollar «otin» yoki «otincha» deyilgan. Lekin otin bilan u tanlagan «Uvaysiy» taxallusi mohiyatan to'g'ri kelmaydi: otinlik bolalarni o'qitish bo'lsa, uvaysiylik ruhoniylar tarbiya olish demakdir. Jahonotinning bunday taxallus tanlashi qaranlik oshiq Uvays Qaraniy nomi bilan bog'liq, deyishga bir qator asoslar bor.

Keyinchalik Jahonotin Uvaysiy Qo'qon xoni Umarxonning rafiqasi, shoira Nodirabegim va boshqa ijodkor ayollarga she'riyat ilmidan dars berdi. U shuningdek, muammo she'rda fikrni yashirin ifodalash san'atini mukammal egallagan va bu orqali shogirdlariga nafaqat she'riyatning badiiy uslubini, balki murakkab va nozik fikrlarni ifodalashni o'rgatgan.

Qo'qon xoni Umarxon Uvaysiyga ehtirom sifatida Marg'ilonda muhtasham uy qurdirib bergan. Shoiraning avlodlari ushbu uyda 1941-yilgacha yashagan [4:46]. Shunga qaramay, Uvaysiy ancha nochor kunlar kechirgan. Xon tomonidan unga bir tanob yer va'dasi berilgan bo'lsa-da, bu va'dalar bajarilmagan. Shoiraning she'rlaridan birida o'g'li Muhammad choponi yo'qligidan el qatori iydda ko'chaga chiqolmaganini, qizi esa ko'ylak va ro'mol istab yig'laganini eslatib o'tgan.

Manbalarda keltirilishicha, moddiy rag'batga erisha olmagan Uvaysiy keyinchalik saroydan ketib, dehqonchilik bilan kun kechirgan [5:335]. Boshqa bir manbada esa shoira Amir Nasrullo Qo'qon Qo'qonni bosib olganidan so'ng Marg'ilonga qaytib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashagani qayd etilgan [6:656].

Shu tarzda, Uvaysiy nafaqat adabiy meros va ayol shoirlarga ustozlik orqali, balki hayotidagi sinovlar va moddiy qiyinchiliklarga qaramay, o'zining ijodiy va ma'rifiy faoliyati bilan Qo'qon xonligidagi ayol muallimlar tizimi va shoirlar ijodiga beqiyos hissa qo'shgan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligida ayol muallimlar va shoirlar faoliyati savodxonlik, ma'naviy tarbiya va badiiy ijodning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Dilshodi Barno va Anbar Otin maktabdorlik bilan

shugʻullanib, yosh qizlarning ilmiy va badiiy salohiyatini oshirishga hissa qoʻshgan. Jahonotin Uvaysiy esa shoiralarga ustozlik qilib, sheʼriyat sanʼati va tasavvufiy badiiy merosni shakllantirishga katta hissa qoʻshgan. Nodirabegim kabi shogirdlar esa bu merosni davom ettirgan.

Shunday qilib, Qoʻqon xonligi davridagi ayol shoirlar va muallimalarning faoliyati jamiyatda ayollarning maʼnaviy va ijtimoiy oʻrnini mustahkamlash, yosh avlodni maʼrifatli qilish va oʻzbek mumtoz adabiyotini boyitishda beqiyos hissa qoʻshgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov D. Taʼlimdagi yangilanish va sifat // “Xalq soʻzi”, 2022 yil 30 sentyabr.
2. Мухтаров А. "Дильшод и ее место в истории общественной мысли таджикского народа в XIXв. - начале XXвв. Душанбе, Дониш, 1969.
3. *Haqqulov I. Uvaysiy sheʼriyati. –Toshkent: 1982.*
4. **Жалолов Т.** Ўзбек шоиралари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1970.
5. **Абдуллаев В. А.** Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1964.
6. **«Увайсий».** Ўзбек совет энциклопедияси: 11-ж. (Текислик — Фазлий). – Тошкент: «Ўзбек совет энциклопедияси» Бош редакцияси, 1978.